
Toshloqda “Mahalla tizimi xodimlari kuni” munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Unda sektor rahbarlari, mahalla tizimida faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar, nuroniylar, mahalla faollari ishtirok etdilar.

Tadbirda soʻz olganlar barcha mahalla faollarini bayram bilan samimiy muborakbod etdilar. Mahallalar ravnaqi va farovonligi yoʻlida olib borayotgan kelgusi faoliyatlarida omad tiladilar.

Bugungi kunda tumanda 51 ta MFYlar faoliyat yuritib, har bir oilada va butun jamiyatimizda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni mustahkamlash, yosh avlodni ham maʼnan, ham jismonan barkamol etib tarbiyalash, oilaviy nizolarning oldini olish kabi koʻplab vazifalarni sharaf bilan bajarib kelmoqdalar.

Bayram tadbirida mahalla faollari va maslahat kengashi aʼzolarining bir guruhiga tuman hokimining tashakkurnomalari va esdalik sovgʻalari topshirildi.

Tadbir doirasida bayram dasturxonini yozildi va tuman madaniyat boʻlimi ijodkorlari tomonidan kuy-qoʻshiqlar ijro etilib, yigʻilganlarga bahoriy kayfiyat ulashildi.

2024-03-25 08:06:54